**Umumta'lim maktabining 2024-2025-o'quv yili o'quvchilarining kimyo fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va topshiriqlar varianti**

**11-___sinf o'quvchisi ______________________________________**

**F.I.SH.**

**O'quvchi to'plagan umumiy ball:_____ (maksimal ball: 20)**

**II Chorak 3-BSB**

1. O'rganilayotgan birikmalarni kuchli elektrolitlar, kuchsiz elektrolitlar va noelektrolitlarga ajrating.

| | |
|---|---|
| **HCl** | |
| **NaOH** | |
| **$CH_3COOH$** | |
| **NaCl** | |
| **$C_2H_5OH$** | |
| **$C_{12}H_{22}O_{11}$** | |

2. Yuqori pH ga ega bo'lgan eritmalar sochlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shampun tarkibida lauril sulfat ($C_{12}H_{25}OSO_3Na$) mavjud bo'lib u ma'lum bir muhitni ifodalaydi. Ushbu tuzning eritmasiga mos keladigan xususiyatlarni tanlang.

A. pH = 7, neytral muhit, lakmus binafsha rangda bo'ladi.

B. pH > 7, ishqoriy muhit, fenolftalein pushti rangda bo'ladi.

C. pH < 7, kislotali muhit, metal zarg'aldog'i qizil rangda bo'ladi.

D. pH = 2, kislotali muhit, universal indikator qizil rangda bo'ladi.

3. Rasmlarda ko'rsatilgan reaksiyalar uchun to'liq ion tenglamalarini yozing.

1) Oz eriydigan moddaning hosil bo'lishi;




PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI

2) Gaz moddaning hosil bo‘lishi;




3) Kuchsiz elektrolit - suv hosil bo‘lishi




**4.** Qisqartirilgan ionli gidroliz tenglamalarini yozing va koeffitsientlar yig‘indisini hisoblang.

| Tuz | Kation bo‘yicha gidroliz | Anion bo‘yicha gidroliz | Koeffisentlar yig‘indisi |
|---|---|---|---|
| $K_2CO_3$ | | | |
| $CH_3COONa$ | | | |
| $NH_4Cl$ | | | |
| $MgCl_2$ | | | |

**5.** **B**ariy gidroksidini 100 ta molekulasi berilgan. Agar α ning qiymati 81% bo‘lsa, ionlarga parchalanmagan bariy gidroksid molekulalari sonini aniqlang.

PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI

PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI

PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI